


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI HUZURIDAGI
YURIDIK KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI
OSHIRISH INSTITUTI**

“TASDIQLAYMAN”
Yuridik kadrlarni qayta
tayyorlash va malakasini
oshirish instituti direktori
birinchi o‘rinbosari


_____**R.Xursanov**
2025-yil 23 - iyun

**“DAVLAT VA JAMIYAT QURILISHI HAMDA KORRUPSIYAGA QARSHI
KURASHISH”**
bo‘yicha qisqa muddatli o‘quv kursi
O‘QUV DASTURI
(malaka oshirish)

T/r	Modul va mavzular nomi	O'quv mashg'ulot turlari bo'yicha soatlar			
		Ma'ruza	Seminar-trening	Amaliy mashg'ulot	Jami
1	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy prinsiplari hamda inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari	2	2	-	4
2	Jamiyat va shaxs. O'zbekistonning ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi	-	2	-	2
3	Davlat hokimiyatining tashkil etilishi	2	2	-	4
4	Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish tartibi	-	2	-	2
5	O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonunning mazmun-mohiyati	2	2	2	6
6	Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashni normativ-huquqiy tartibga solish	2	2	2	6
7	O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonunining mazmun-mohiyati	-	2	-	2
8	O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunining mazmun-mohiyati	2	2	-	4
9	O'zbekiston Respublikasining "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi qonunning mazmun-mohiyati	2	-	-	2
10	O'zbekiston Respublikasining "Elektron hukumat to'g'risida"gi Qonunining mazmun-mohiyati	-	2	-	2
11	O'zbekiston Respublikasining "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonunining mazmun-mohiyati	2	-	-	2
12	O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuning mazmun-mohiyati	-	2	-	2
13	O'zbekiston Respublikasining "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonunning mazmun-mohiyati	-	2	-	2
14	O'zbekiston Respublikasida soliqlar va yig'imlar tizimi hamda soliq munosabatlarining sub'ektlari, ularning huquqlari va majburiyatlari	-	2	-	2
15	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining vazifalari	2	-	-	2
jami		16	24	4	44

O'QUV KURSINING MAZMUNI

DAVLAT VA JAMIYAT QURILISHI HAMDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH
1-mavzu. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy prinsiplari hamda inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari
Davlat suvereniteti. Xalq hokimiyatchiligi. Konstitutsiya va qonunning ustunligi. Tashqi siyosat. Fuqarolik. Shaxsiy huquq va erkinliklar. Siyosiy huquqlar. Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar. Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari. Fuqarolarning burchlari.
2-mavzu. Jamiyat va shaxs. O'zbekistonning ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi
Jamiyatning iqtisodiy negizlari. Jamoat birlashmalari. Oila. Ommaviy axborot vositalari. O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi. Qoraqalpog'iston Respublikasi.
3-mavzu. Davlat hokimiyatining tashkil etilishi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti. Vazirlar Mahkamasi. Mahalliy davlat hokimiyati asoslari. O'zbekiston Respublikasining sud hokimiyati. Saylov tizimi. Prokuratura. Moliya va kredit. Mudofaa va xavfsizlik.
4-mavzu. Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish tartibi
O'zbekiston Respublikasining Qonun yoki O'zbekiston Respublikasining referendumini. Referendum o'tkazish tartibi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish bo'yicha vakolatlari. Oliy Majlisning Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish to'g'risidagi taklifni rad etilishi.
5-mavzu. O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi qonunning mazmun-mohiyati
Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risidagi qonunchilik. Normativ-huquqiy hujjat tushunchasi. Normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish huquqiga ega bo'lgan organlar yoki mansabdor shaxslar. Ushbu Qonunning asosiy prinsiplari. O'zbekiston Respublikasining qonunchilik tizimi. Normativhuquqiy hujjatlar loyihalarini rejalashtirish, tashabbus qilish va tayyorlash. Normativ-huquqiy hujjat loyihasini ekspertizadan o'tkazish va kelishish. Normativ-huquqiy hujjat loyihasini normativhuquqiy hujjat qabul qilish huquqiga ega bo'lgan organga kiritish, normativ-huquqiy hujjatni qabul qilish. Normativ-huquqiy hujjatlarning e'lon qilinishi, kuchga kirishi va amal qilishi. Normativhuquqiy hujjatlarning ijrosini tashkil etish va ta'minlash. Normativ-huquqiy hujjatlarga qo'yiladigan asosiy talablar va ularni rasmiy sharhlash
6-mavzu. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashni normativ-huquqiy tartibga solish
Murojaatlar bilan ishlash bo'yicha boshqa qonunchilik hujjatlari. Murojaatlar bilan ishlashda shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilishni tartibga solish. Murojaat etish huquqlari kafolatlari. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari munosabati bilan ular xavfsizligining kafolatlari. Davlat organlari va tashkilotlari hamda mahalliy o'zini

o'zi boshqarish organlarida murojaatlar bilan ishlashni huquqiy tartibga solish. Murojaatlarni ko'rib chiqish bo'yicha davlat organlari va tashkilotlari faoliyati. Xalq qabulxonalari va virtual qabulxonalar. Davlat organlari va tashkilotlarida murojaatlar bilan ishlashda elektron hujjat aylanishi tizimlari va murojaatlarning hisobini yuritish.

7-mavzu. O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonunining mazmun-mohiyati

Jamoatchilik nazorati to'g'risidagi qonunchilik. Jamoatchilik nazorati sub'ektlari va ob'ekti. Jamoatchilik nazoratining asosiy prinsiplari. Jamoatchilik nazoratining shakllari. Davlat organlariga murojaatlar va so'rovlar. Davlat organlarining ochiq hay'at majlislarida ishtirok etishmodda. Jamoatchilik muhokamasi. Jamoatchilik eshituvi. Jamoatchilik monitoringi. Jamoatchilik ekspertizasi. Jamoatchilik fikrini o'rganish. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan davlat organlari mansabdor shaxslarining hisobotlari va axborotini eshitish. Jamoatchilik nazorati sub'ektlarining huquq va majburiyatlari. Davlat organlarining jamoatchilik nazorati sohasidagi huquq va majburiyatlari. Jamoatchilik nazoratining natijalari. Jamoatchilik nazorati to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik.

8-mavzu. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunining mazmun-mohiyati

Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilik. Asosiy tushunchalar. Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlari va boshqa dasturlar. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlar. Korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga chek qo'yish, javobgarlikning muqarrarligi.

9-mavzu. O'zbekiston Respublikasining "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqqligi to'g'risida"gi qonunning mazmun-mohiyati

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqqligi to'g'risidagi qonunchilik va uning qo'llanilish sohasi. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ochiqqligining asosiy prinsiplari. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqqligini ta'minlash tartibi. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to'g'risida axborot olishga doir so'rovni ko'rib chiqish tartibi

10-mavzu. O'zbekiston Respublikasining "Elektron hukumat to'g'risida"gi Qonunining mazmun-mohiyati

Elektron hukumat to'g'risidagi qonunchilik. Elektron hukumatning asosiy vazifalari. Asosiy prinsiplar Elektron hukumat sohasini davlat tomonidan tartibga solishni amalga oshiruvchi organlar. Qoraqalpog'iston Respublikasida, viloyatlarda va Toshkent shahrida elektron hukumatni rivojlantirish. Elektron davlat xizmatlari ko'rsatish va elektron hukumatning ishlashini tashkil etish.

11-mavzu. O'zbekiston Respublikasining "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonunining mazmun-mohiyati

Ushbu Qonunning maqsadi va qo'llanilish sohasi va undagi asosiy tushunchalar. Davlat sherigining va xususiy sherikning qonun oldida tengligi prinsipi. Davlat-xususiy sheriklikni amalga oshirishdagi qoidalar va tartib-taomillarning shaffofligi prinsipi. Xususiy sherikni tanlashdagi bahslashuv va xolislik prinsipi. Kamsitishga yo'l qo'ymaslik prinsipi. Korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik prinsipi. Davlat-xususiy sheriklik sohasini davlat tomonidan tartibga solish. Davlatxususiy sheriklik to'g'risidagi bitimning taraflari, ularning huquq va majburiyatlari. Davlat-xususiy sheriklik loyihasini tashabbus qilish va tayyorlash. Xususiy sherikni tanlash. Davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitim. Xususiy sherik va kreditorning manfaatlarini himoya qilish. Davlatxususiy sheriklik loyihalarining amalga oshirilishi sohasida monitoring va hisobdorlik.

12-mavzu. O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuning mazmun-mohiyati

Ushbu Qonunning maqsadi. Ushbu Qonunning qo'llanilish sohasi va undagi asosiy tushunchalar. Ushbu Qonunning asosiy prinsiplari. Shaxsga doir ma'lumotlar sohasini davlat tomonidan tartibga solish. Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish. Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish tartibi. Shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish. Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari. Nizolarni hal etish. Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik.

13-mavzu. O'zbekiston Respublikasining "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonunning mazmun-mohiyati

Ushbu Qonunning maqsadi va undagi asosiy tushunchalar. Davlat fuqarolik xizmatining asosiy prinsiplari. Davlat fuqarolik xizmati sohasida davlat boshqaruvi. Davlat fuqarolik xizmatchisining huquqiy maqomi. Davlat fuqarolik xizmati sohasida korrupsiyaga qarshi kurashish. Davlat fuqarolik xizmatini tashkil etish. Davlat fuqarolik xizmatiga kirish tartibi va shartlari. Davlat fuqarolik xizmatini o'tash tartibi. Davlat fuqarolik xizmatchisi faoliyatining tugatilishi. Davlat fuqarolik xizmatchisini huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilish. Davlat fuqarolik xizmati sohasidagi tadbirlarni moliyalashtirish. Xalqaro hamkorlik. Nizolarni hal etish. Davlat fuqarolik xizmati to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik.

14-mavzu. O'zbekiston Respublikasida soliqlar va yig'imlar tizimi hamda soliq munosabatlarining sub'ektlari, ularning huquqlari va majburiyatlari

Soliqlar va yig'imlar. Soliqlarning va yig'imlarning turlari. Maxsus soliq rejimlari. Soliq munosabatlarining sub'ektlari va hujjatlar almashish tartibi. Soliq to'lovchilar. Soliq to'lovchilarning huquqlari. Soliq to'lovchilarning majburiyatlari. Soliq agentlari. Soliq to'lovchining vakillari. Vakolatli organlar. Soliq organlarining huquqlari. Soliq organlarining majburiyatlari. Bojxona organlarining, yig'imlarni undirishga doir vazifalarni amalga oshiruvchi davlat organlarining hamda tashkilotlarning huquq va majburiyatlari. Soliq siri.

15-mavzu. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining vazifalari

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risidagi qonunchilik. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining maqomi. Konstitutsiyaviy sudning

vakolatlari. Konstitutsiyaviy sudning qonunchilik tashabbusi. Konstitutsiyaviy sud hujjatlari va talablarining majburiyligi.

Manbalar:

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.

O'zbekiston Respublikasining Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risidagi Qonuni.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risidagi Qonuni.

O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonuni.

O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonuni.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi qonuni.

O'zbekiston Respublikasining "Elektron hukumat to'g'risida"gi Qonuni.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonuni.

O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga karshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni.

O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuni.

O'zbekiston Respublikasining "Lisenzialash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi Qonuni.